

MUSIQIY TA’LIMDA SOLFEDJIO FANINING O’RNI

Jumayeva Xurshida Normurotovna

(O‘zbekiston) Navoiy viloyat Navoiy shahar 8-sod Bolalar musiqa va san’at maktabi
solfedjio fani I toifa o’qituvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada Solfedjio fanining musiqiy ta’limda muhim ahamiyat kasb etishi va har bir tahsil olayotagan talabalar uchun professional ijrochilikda asosiy vosita bo’lishi, kerakli bilim va ko’nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sanalishi haqida bayon qilingan.

Kalit sozlar

musiqa, solfedjio, musiqiy eshitish, intonatsiya, kasbiy mahorat

Аннотация

В данной статье утверждается, что наука сольфеджио важна в музыкальном образовании и что она является основным инструментом в профессиональной деятельности учащихся любого образования, а также считается важным фактором развития необходимых знаний и навыки.

Ключевые слова

музыка, сольфеджио, музыкальный слух, интонация, профессиональное мастерство.

Abstract

In this article, it is stated that the science of Solfeggio is important in musical education and that it is the main tool in professional performance for students of every education, and it is considered an important factor in the development of the necessary knowledge and skills.

Key words

music, solfeggio, musical hearing, intonation, professional skills

Azal-azaldan musiqa insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan va u bilan birgalikda takomillashib kelgan. Ko‘p asrlar mobaynida musiqa insonlarga ham quvonchli, ham qayg‘uli kunlarda hamroh bo‘lib kelmoqda.

Bugungi rivojlanib borayotgan jamiyatimizda ko‘p asrlik izlanishlar va islohotlar natijasi o‘laroq mamlakatimiz bo‘ylab ko‘plab musiqa va san’at maktablari faoliyat yuritmoqda. Ushbu maktablarda o‘qitiladigan muhim fanlardan biri “Solfedjio” fani bo‘lib, bu fan musiqa yo‘nalishidagi barcha fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, musiqaning matematikasıdir.

Musiqiy ta’limda professional tahsil berishda o‘quvchilarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Mamlakatimizning barcha musiqiy ta’lim dargohlarida “Solfedjio” fani avvalambor musiqa va san’at maktablarida o’rgatila boshlanadi va tahsil ixtisoslashtirilgan maktablarda, oliy ta’lim dargohlarida davom etadi.

Solfedjio darslarida o‘quvchida musiqani tushunish, his qilish, eshitish, tahlil qilish kabi muhim bilim va ko’nikmalar shakllanib boradi. Shuningdek, bu albatta kasbiy mahoratda o‘z aksini namoyon etadi.

Solfedjio o‘qitish amaliyotidagi yutuqlarni inkor etib bo‘lmaydi. Eng yaxshi o‘qituvchilarining shaxsiy tajribasida, ko‘plab qo‘llanmalarda, xrestomatiyalarda, darsliklarda, turli uslubiy ishlarda, eshitish ta’limining turli uslublari to’plangan yagona solfedjio tizimining asoslari yaratilgan.

Solfedjio – bu amaliy fan bo‘lib, u birinchi navbatda bir qator amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Dastlab, solfedjio faqat vokal ijrochilik uchun mo’ljallangan va vocal ijrochilarini tayyorlashning ajralmas qismi hisoblangan. Agar ilgari shu fanni shakllantirishning birinchi bosqichida - solfedjio mashg’ulotlari asosan notalar nomini aytib kuylashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, endi kurs mazmuniga musiqiy eshitishni tarbiyalash va rivojlantirishga hissa qo’shadigan boshqa endilikda bu yanada takomillashib, eshitish orqali tahlil qilish, diktant yozish, intonatsion mashqlar, notani varaqdan o‘qish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Intonatsion mashqlar – musiqiy qobiliyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Uning xususiyati turli balandlikdagi tovushlarni idrok etish, eslab qolish va takrorlash qobiliyatidir.

Musiqiy eshitishda intonatsion tomoni katta ahamiyatga ega. “Intonatsiya” tushunchasi turli xil ma’nolarni o‘z ishiga qamrab oladi: intonatsiya musiqiy tematik burilish sifatida, tovushning sof va aniq ijrosi sifatida, inson nutqidagi ekspressiv moment sifatida, fikrlar va histuyg’ularni namoyon etish va so’zlarga ma’lum ma’no berish kabi ma’nolarni anglatadi. Musiqiy eshitishni rivojlantirishda intonatsiya deganda mysiqiy tematik burilish va aniq, sof ijro tushuniladi. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirishda ushbu bog’liqlikni hisobga olish kerak.

Bir qator o‘qituvchilarining turli o‘qitish tizimlari va ish amaliyotlarini tahlil qilish, bizga o‘quvchilarining uyg‘unlik tuyg‘usini tarbiyalash va rivojlantirish masalasi bo‘yicha ba’zi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Rivojlanishning uslubiy asoslari haqida gapirganda va aynan garmoniya, akkordlar, tovush majmualari idrok paytida ifodaliligi va hissiy yorqinligi tufayli laddagi bog’liqliklarni tushunishga yordam beradi. Talaba bu akkord qayerga olib borishini tushunishi, garmonianing funktional bog’lanishlarini tushunishi kerak.

Shunday ekan, avvalambor musiqa va san’at maktabi “Solfedjio” fani o‘qituvchilaridan bolalarni va kasbini sevish, darslarni tashkil qilishda jonli, quvnoq, improvizatsiya qila olish, turli xil ko’rgazmali qo‘llanmalardan foydalana olish va bolalarga musiqani his qilishni o‘rgata olish talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa umumiinsoniy nutqdir va va so’z bilan ifoda eta olmaydigan narsani faqatgina “Musiqa” ifoda eta oladi. Shunday ekan, musiqa bizni o‘zining mo’jizali, sehrli olamiga yetaklar ekan, u tinch va farovon hayotga chorlaydigan konsonanslar va ritmik sinkopalarni o‘zaro bog’lashi mumkin. Bu ma’lum bir ziddiyatni ifodalovchi turli xil dissonanslar o‘rnini bosadi. Albatta buni his qilish uchun “Solfedjio” fanini o‘rganib, hayot sifatini yaxshilashda muhim vosita sifatida hayotga tatbiq etish lozim. Musiqaning turli yo’nalishlarida tahsil olayotgan har bir talaba uchun “Solfedjio” – professional mahorat sohibi bo‘lishga yaqinlashtiruvchi muhim omildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Курс сольфеджио» Агажанов А. М 1965
2. «Гармоническое сольфеджио» Алексеев Б. М 1966
3. «Новое Сольфеджио» Рубец А 2021
4. «Сольфеджио любви» Столыпин В. 2021
5. «Solfedjio» Azizov O. “Musiqa” nashriyoti 2007
6. «Musiqa nazariyasi» Trigulova A, Urmanova L, Ibraximjanova G
Toshkent-2013